

**SAMARQAND DALAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJURAYEVA SHAHLO G‘ULOM QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING
POLIFUNKTSIONALLIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Djurayeva Shahlo G‘ulom qizi

Ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlarining polifunksionallik va pragmatik xususiyatlari..... 3

Джураева Шахло Гулом кизи

Полифункциональность и прагматические особенности вводных слов в английском и узбекском языках 25

Djurayeva Shahlo Gulom kizi

Polyfunctionality and pragmatic features of introductory words in English and Uzbek..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**SAMARQAND DALAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJURAYEVA SHAHLO G‘ULOM QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIRISH SO‘ZLARINING
POLIFUNKTSIONALLIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD /Fill618 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar: **Mirsanov G'aybullo Kulmurodovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Suleymanova Nilufar Djabbarovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nizomova Moxinur Baratboyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "20" may soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 2342936; e-mail: info@samdhti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63093 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 2342936.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "4" may kuni tarqatildi.
(2026-yil "4" may dagi 31 -raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

U.U. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Bugungi kunda jahon tilshunosligida turli tizimli tillardagi lisoniy birliklarning polifunksional xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etish ilmiy izlanishlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Chunki ma‘lum bir lingvistik sathga mansub birliklarning kontekstdagi faollashuvi natijasida yuzaga keladigan polifunksionallik hodisasi ularning diskursiv ahamiyati, kommunikativ vazifalari, lingvokulturologik hamda pragmatik talqinlarini keng qamrovli tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, tilni faqat tizim sifatida emas, balki pragmatik nuqtai nazardan ham tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligi kiritma birliklarning turli kontekstlarda namoyon bo‘ladigan pragmatik imkoniyatlari va diskursiv funksiyalarini ilmiy asosda qiyosiy o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Chunki ushbu birliklarning ko‘p qirrali, ya‘ni polifunksional tabiatini ochib berish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ularning turli lingvistik shakl va vositalar orqali kommunikativ jarayonga qo‘shilishi, badiiy matnda stilistik yaxlitlikni, struktural va semantik bog‘liqlikni ta‘minlashi mazkur hodisani yanada muhim qiladi. Shu jihatdan kiritma birliklarni pragmatik va semantik aspektda chuqur tadqiq etish ularning sintaktik tuzilmalari hamda stilistik modifikatsiyalari o‘rtasidagi o‘ziga xos aloqalarni ochib berish, semantik xususiyatlarini kengroq yoritish imkonini beradi.

Mamlakatimizda tilshunoslikning turli sohlaridagi tadqiqotlari rivojlanishining negizida respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar davrida Yangi O‘zbekiston barcha mamlakatlar bilan madaniy aloqalar uchun har tomonlama ochiq bo‘lgan mamlakatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ilm-fan rivojlanishini “eng katta boylik – aql-idrok va ilm-fan, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bilimlarning yo‘qligi hisoblanadi” – deb baholagan edi.¹ O‘zbek milliy qadriyatlari, ma‘naviyati, madaniyatini o‘zida mujassam etgan badiiy matnning tadqiqi hamda uning tarjimasini amalga oshirish muammolarini o‘rganish dolzarblashmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish” masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 08-oktyabrdagi PF – 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020-yil 24-yanvardagi Олий Мажлисга murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/3309> murojaat sanasi: 25.01.2020.

6-noyabrdagi PF-6108-son O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2017-yil 7-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda kiritma birliklarning polifunksionalligi va pragmatik xususiyatlari masalasi xalqaro hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazarlarda yoritib kelingan. Avvalo, ingliz tilshunosligida ushbu hodisaning sintaktik-semantik tabiati, diskursiv ahamiyati hamda kommunikativ jarayondagi funksiyalari keng o‘rganilgan. Xususan, E. Goffman, S. Levinson, V. Edmondson kiritma birliklarning nutqiy muloqotdagi interaktiv vazifalari va matnning izchilligini ta‘minlashdagi o‘rnini izchil tahlil qilgan.² Shuningdek, A.I. Anikin, O.S. Axmanov, A.P. Baranov, I.B. Kobozeva ishlarida kiritma birliklarning struktur-semantik tabiati, stilistik va pragmatik imkoniyatlari yoritilgan.³

Rus tilshunosligida esa A.M. Peshkovskiy, Z.Ya. Turaeva, A.P. Skvorodnikov⁴ kabi olimlar kiritma birliklarning sintaktik va semantik xususiyatlari, matndagi kommunikativ vazifalari haqida nazariy asoslangan qarashlarni ilgari surganlar. G‘arb tilshunosligida P. Akema, A. Nelman, N. Burton-Roberts, L. Grenoble⁵ tadqiqotlarida kiritma birliklarning diskursiv

² Goffman, E. *Forms of Talk*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981. – 335 p; Levinson, S. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p; Edmondson, W. *Spoken Discourse: A Model for Analysis*. London: Longman, 1981. – 270 p;

³ Аникин А. И. Вводные слова и их соотношение с структурно-семантическими категориями слов в современном языке // Ученые записки МГПИ. – Москва, 1958. – 136 с; Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 612 с; Баранов А. П. Лингвистическая экспертиза текста. – Москва: Наука, 1991. – 181 с; Кобозева И. Б. Лингвистическая семантика. – Москва: Editorial, 2000. – 355с.

⁴ Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. – Москва: Учпедгиз, 1956. – 514 с; Тураева З. Я. Категория текста и её лингвистическое исследование. – Москва: Наука, 1986. – 130 с; Сквородников А. П. Очерки по стилистике текста. – Красноярск: КГПУ, 2002. – 212 с.

⁵ Ackema P., Neeleman A. *Beyond Morphology*. – Oxford. Oxford University Press, 2004. – 339 p; Burton-Roberts N. *Analysing Sentences: An Introduction to English Syntax*. – London: Longman, 1997. – 320 p; Grenoble L. A. *Language Policy*. – Dordrecht. Kluwer Academic Publishers, 1998. – 303 p.

mexanizmlari, semantik-pragmatik ko‘rsatkichlari hamda matn strukturasiidagi roli turli lingvistik modellar orqali izohlangan.

O‘zbek tilshunosligida ham mazkur hodisani o‘rganish alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. D.U. Ashurova, Sh. Safarov N.Z. Normurodova, N. Qodirov, S.M. Usmonova, L. Jamoliddinova kabi olimlarning izlanishlarida badiiy matndagi kiritma birliklarning kognitiv-pragmatik tabiati, matn modalligini ta‘minlashdagi o‘rni, milliy-madaniy xususiyatlari va polifunksionalligi keng qamrovli tahlil qilingan.⁶

Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillarida kiritma birliklarning polifunksionalligi va pragmatik imkoniyatlarini qiyosiy jihatdan chuqur o‘rganish masalasi hali to‘laqonli yechim topmagan bo‘lib, mazkur izlanishning ilmiy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqasi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillat instituti Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy tillarni o‘qitishning lingvometodik tamoyillari va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar” mavzusidagi yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi kiritma birliklarning vujudga kelishini qiyosiy-pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish, ularning polifunksionalligi, semantik hamda pragmatik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillaridagi kiritma birliklarning semantik xususiyatlarini kontekst doirasida ochib berish va ularning turli ma‘no ko‘lamini tavsiflash;

ingliz va o‘zbek tillaridagi kiritma birliklarning pragmatik vazifalarini matn izchilligi, muloqot jarayonidagi interaktivlik, emotsional-ekspressiv ta‘sir kabi jihatlarini solishtirish orqali isbotlash;

ingliz va o‘zbek tillarida kiritma birliklarning polifunksionalligini aniqlash va ularning turli matn tarkibida funksional imkoniyatlarini ko‘rsatisochib berish;

qiyosiy tahlil orqali ingliz va o‘zbek tillarida kiritma birliklarning semantik, stilistik, pragmatik funksiyalarini, antonimik-sinonimik tarkibini aniqlash;

Tadqiqot obyektini sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlar asosida to‘plangan kiritma birliklar tanlab olindi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillarida kiritma birliklarning badiiy matnlardagi pragmatik polifunksionallik xususiyatlarini talqin qilish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu ilmiy ishda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida lingvistik tavsiflash mantiqiy-tushuntirish, konseptual, semantik-stilistik, qiyosiy-tipologik, semantik-pragmatik, kontekstual hamda diskursiv tahlil metodlari kiritma birliklarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini ochib berishga xizmat qildi.

⁶ Ашурова Д. У. Discourse and Discourse Analysis. -Тошкент: Фан, 2012. –184 p; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. – 284 б.; Нормуродова Н. З. Ўзбек матнларида кiritма бирликларнинг прагматик вазифалари. -Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2019. – 215 б; Қодиров Н. Ўзбек тилида кiritма бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. -Тошкент: Фан, 2020. –247 б; Усмонова С. М. Бадий матнда кiritма бирликларнинг когнитив-прагматик тахлили. -Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2021. – 208 б; Жамолиддинова Л. Матнда модалликнинг лингвопрагматик ифодаланиши. -Тошкент: НУУз нашриёти, 2022. – 179 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kiritma birliklar semantik va funksional jihatdan kompleks tarzda tadqiq etilib, ularning ma'no ko'lami, nutq jarayonidagi vazifalari hamda kommunikativ-pragmatik maqsadi bilan bog'liqligi asoslab berilgan;

ingliz va o'zbek tillarida kiritma birliklarning pragmatik vazifalari ya'ni matn izchilligini ta'minlash, muloqot jarayonida faollikni kuchaytirish hamda emotsional-ekspressiv ta'sirni ifodalashdagi o'rni va ahamiyati isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida kiritma birliklarning polifunksionalligini matn semantikasiga bog'liqligi, ularning sinonimik va antonimik xususiyatlari, semantik faolligiga aloqadorligi dalillangan;

kiritma birliklarning ikki til tizimidagi funksional-semantik xususiyatlari, sinonimik qatori hamda antonimik oppozitsiyasi matnning mantiqiy izchilligini va kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi muhim vosita ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya natijalari pragmatika, lingvistika, kognitiv stilistika, kognitiv semantika, umumiy va qiyosiy stilistika, matn lingvistikasi, ritorika va poetika kabi sohalardagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarga muayyan hissa qo'shishi mumkinligi asoslab berildi.

o'zbek tilshunosligida "kiritma birliklari" tushunchasi va ularning lingvokognitiv mexanizmlari aniqlanib, mazkur hodisaning nazariy-amaliy talqini boyitildi.

ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda kiritma birliklarning pragmatik-semantik xususiyatlari ochib berildi, bu esa ularning matn mazmuni va kommunikativ qiymatidagi rolini aniqlash imkonini berdi.

turli kiritma birliklarining aniqlanishi va tahlili badiiy matn materialida ingliz tili vositalarining stilistik hamda semantik jihatdan modifikatsiyalangan ekspluatatsiyasi, individning lingvokreativ imkoniyatlari, kognitiv-semantik xususiyatlari, tafakkur tarzi va dunyoqarashini ifodalashning o'ziga xosligini belgilovchi ustuvor "tajriba maydonchasi" sifatida foydalanish imkoniyatini yaratdi.

oliy ta'lim jarayonida ingliz tilidagi badiiy matnlarning semantik tabiatini chuqurroq o'rganish uchun kiritma birliklarini pragmatik-semantik tahlil qilish asosida majmuaviy o'rganishni tatbiq etish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ingliz va o'zbek tillarida kirish so'zlarning polifunksionalligi va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida muammoning aniq qo'yilganligi, olingan xulosalarning metodologiya va metodika bilan uyg'unligi, mavzuning dolzarbligi hamda muhim ilmiy vazifalarning hal etilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, kirish so'zlarning turli vazifalarda qo'llanishi va ularning pragmatik jihatdan talqin etilishi nazariy asoslangan bo'lib, tadqiqotda qiyosiy-nazariy usullardan foydalanilgan va natijalar amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1) ingliz va o'zbek tillarida kiritma birliklarning polifunksionalligi va pragmatik xususiyatlari zamonaviy lingvistik tendensiyalar asosida turli rakurslardan tahlil qilinishi; 2) kiritma birliklarni o'rganishda kommunikativ,

semantik, pragmatik hamda kognitiv yondashuvlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi va ularning integrativ tadqiq etilish imkoniyatlarining tasdiqlanishi; 3) kiritma birliklarni matn izchilligi, interaktivlik va emotsional-ekspressiv ta’sirni ta’minlovchi muhim pragmatik vosita sifatida ko‘rib chiqish, shuningdek, ularning funksional va ma’no soylarini aniqlash orqali til tizimidagi o‘rni belgilash bilan izohlanadi. Bunday ilmiy-nazariy yondashuv ingliz va o‘zbek tillaridagi kiritma birliklarning lingvopragmatik, kognitiv va semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida o‘rganish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, u universitetlarning o‘quv jarayonida matn va nutqning pragmatik tahlili, semasiologiya, kognitiv va qiyosiy tilshunoslik fanlari bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari, maxsus kurslarni tashkil etishda qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda, izohli va ensiklopedik lug‘atlar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlarining polifunksionallik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi amaliy joriy etilish ishlari amalga oshirildi:

badiiy matnlar asosida kiritma birliklarining pragmatik- semantik xususiyatlari, kirish so‘zlarning matn va diskursdagi lingvokognitiv hamda lingoma’daniy xususiyatlarini aniqlash, semantik voqelanishi va pragmatik faollashuvini aniqlashga doir ilmiy xulosalardan O‘zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasvirini monogafik aspektda tahlil qilish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan (O‘zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 14-noyabrdagi 749/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek badiiy matnlari strukturasi kiritma birliklarning estetik, ekspressiv va diskursiv xususiyatlari, ularning faollashuvi, semantik-pragmatik yuklamasi etnolingvistikaga ta’sirini tahlil qilishning takomillashuviga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlarining pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida Samarqand davlat chet tillar institutida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 16-oktyabrdagi 3169/02 ma’lumotnomasi). Natijalar ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlarning pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish bo‘yicha talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilgan;

kirish so‘zlarning turli ijtimoiy-muloqot vaziyatlarida, jumladan, formal va rasmiy nutq doiralarida hamda ijtimoiy va ilmiy-notiqlik matnlarida kommunikativ vazifalarni bajarishi, ularning lingvopragmatik imkoniyatlaridan o‘zbek tilining zamonaviy nutqiy-amaliy matnlarini ishlashda foydalanish bo‘yicha tavsiya va

ilmiy xulosalar FM 105.2 “Samarqand” radiokanalining 2025-yil 9-noyabrda efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi, Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 10-noyabrdagi 01-07/372-son ma’lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning muqoyasa qilinayotgan tillar misolidagi kirish so‘zlarning ijtimoiy kommunikativ va pragmatik vazifalari to‘g‘risida tizimli bilimlarga ega bo‘lishi hamda eshittirishning konseptual samaradorligi ta’minlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida kiritma birliklarning polifunksionalligi aniqlanib, ularning turli kontekstlardagi funksional imkoniyatlari bir vaqtning o‘zida bir nechta kommunikativ vazifani bajarishi - izohlash, aniqlashtirish, muallifning munosabatini ifodalash, baholash, diqqatni tortish yoki nutqning pragmatik yo‘nalishini belgilash funksiyalari to‘g‘risidagi xulosalardan Jizzax davlat pedagogika universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan loyiha shifri: S-ECAHD-18-CA-0067, shartnoma raqami: PO#02002358 bo‘lgan “English Access Microscholarship” xorijiy amaliy loyihada samarali foydalanilgan. (Jizzax davlat pedagogika universitetining 2025-yil 19-noyabrdagi № 04-1313 ma’lumotnomasi). Natijada, kirish so‘zlarning muloqotdagi funksional yuklamasi va ularning pragmatik ma’nolarini belgilovchi omillar so‘zlovchi ongida avvalo kognitiv tuzilma sifatida shakllanishi, shundan so‘ng ularning nutqda baholovchi, emotsional, mantiqiy va kontakt o‘rnatish vazifalarini bajarishi hamda muqoyasa qilinayotgan tillardagi kirish so‘zlarning funksional-semantik maydonda voqelanishi, ularning semantika va pragmatika bilan uzviy bog‘liqligini asoslovchi mezonlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek, kafedraning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, tadqiqotning umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi “**Matn shakllanishida pragmatik vositalar**” deb nomlanib, 3 bo‘limni o‘z ichiga olgan. Unda nutq va matnning kommunikativ mohiyatini belgilovchi pragmatik vositalarning lingvistik xususiyatlari, ularning muloqot jarayonidagi funksional roli, emotsional-ekspressiv ta’sir kuchi hamda izchillikni ta’minlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, pragmatik birliklarning matn tuzilishida kontekstual ma’no hosil qilish, tinglovchiga ta’sir o‘tkazish va interaktivlikni shakllantirishdagi vazifalari o‘rni ochib berilgan. Bobning 1-bo‘limi “*Matn bog‘liqligini ta’minlovchi pragmatik vositalar*” sarlavhasi ostida kirish so‘zlarga tilshunoslar tomonidan berilgan tavsiflari, hamda matnshunoslikdagi murakkab sintaktik butunliklar nazariyasi, xususan, A.M. Peshkovskiy, L.A. Bulaxovskiy va N.S. Pospelov kabi olimlar tomonidan ilmiy asosda ishlab chiqilgan konsepsiya matn doirasida gapdan yuqori bo‘lgan lingvistik birliklarni aniqlash, ularning semantik izchilligi va sintaktik strukturasi tahlil qilishda zarur nazariy poydevor vazifasini bajarishiga bag‘ishlangan.⁷ Ushbu nazariya matnni ko‘p qatlamli – sintaktik, semantik, pragmatik – tizimli yaxlitlik sifatida o‘rganish imkonini beradi va tilshunoslikda matnni integral obyekt sifatida konseptualizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur nazariyaning keyingi bosqichdagi evolyutsion taraqqiyoti I.A. Figurovskiy, I.R. Galperin, O.I. Moskalskaya va G.Ya. Solganik kabi nufuzli tilshunoslarning izchil ilmiy izlanishlarida davom ettirilib, matnning struktura va mazmun birligi nuqtai nazaridan yanada murakkabroq va chuqurroq qirralarini yoritishga xizmat qilgan.⁸ Ularning tadqiqotlari natijasida gap doirasida tushuntirib bo‘lmaydigan lingvistik hodisalar, xususan, ellipsislar, pronominal zanjirlar, tematiko-rimatik siljishlar, semantik implikatsiyalar aniqlandi.

Ishning keyingi fasli “Kiritma birliklarning nutqdagi vazifalari” deb nomlangan holda unda matn tahlilida pragmatik vositalarning funksiyalarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Pragmatik tarkibga kiruvchi presuppozitsiya matnni semantik jihatdan tahlil etishning samarali usullaridan biri bo‘lib, u nafaqat matn mazmunining chuqur qatlamlarini ochib beradi, balki til birliklari o‘rtasidagi ko‘p darajali bog‘lanishlarni aniqlash imkonini ham yaratadi. Presuppozitsiya asosida so‘zlar, so‘z birikmalari va ma’lum jumalarning ma’nosi oldindan mavjud bilimlar va kontekst asosida taxmin qilinadi. Bu esa matnda bevosita ifoda etilmagan, lekin semantik jihatdan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa, presuppozitsiya matnning izchilligi, semantik yaxlitligi va mantiqiy uzviyligini ta’minlovchi vosita sifatida tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Matn birliklarini o‘rganish jarayonida asosiy ilmiy vazifalar quyidagi yo‘nalishlarda jamlanadi:

⁷ Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. – Петроград: Типография Ю. Н. Эрлих, 1914. – С. 115–120; Булаховский Л. А. Краткая русская грамматика. – Киев: Радянська школа, 1949. – С. 89–93; Пospelov Н. С. Грамматика современного русского литературного языка. – Том 2: Синтаксис. – Москва: Изд-о АН СССР, 1954. – С. 210–215.

⁸ Фигуровский И.А., Гальперин И.Р, Очерк по стилистике английского языка. – Москва: Учпедгиз, 1955. – С. 45–52; Гальперин И.Р, Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – С. 20–27; Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – С.60–68; Москальская О.И, Современный русский язык: Синтаксис. – Москва: Высшая школа, 1981. – С. 100–110; Солганик Г.Я, Стилистика текста. – Москва: Флинта–Наука, 1997. – С. 75–81; Солганик Г.Я, Стилистика современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 2000. – С. 150–158.

1. Matn birliklarini aniqlash va ajratish – uzviy bog‘langan matn doirasida mazkur birliklarni ajratish hamda ularning aniq mezon va metodologik asoslarini ishlab chiqish;

2. Matnni maqomini belgilash – ushbu birliklarning til tizimidagi o‘rni, funksional xususiyatlari va semantik tabiatini aniqlash;

3. Til vositalari bilan ifodalanishini tahlil qilish – bu birliklarning morfosintaktik shakllanishi, ularning o‘zaro semantik va struktural bog‘lanishlari, jumladan, frazeologik birliklar orasidagi aloqadorlik tizimini chuqur tahlil qilish;

4. Pragmatik aspektini yoritish – muallifning obyektiv haqiqatga va matn mazmuniga bo‘lgan munosabatining matn tuzilmasida qanday aks etishini, xususan, matn segmentatsiyasi orqali qanday realizatsiya topishini tadqiq qilish.⁹

Bu vazifalar matn tahlilini nafaqat strukturaviy, balki funksional va kommunikativ jihatdan ham chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Jumladan, kichik matn mazmuniga presuppozitsiya vazifasida qo‘llanadigan lisoniy vositalar matnning funksional va kommunikativ vazifasini bajaradi. Aksariyat hollarda kiritma birlik va iboralar presuppozitsiya vazifasini bajarib beradi. Kiritma birliklar va iboralar ko‘plab adabiyotlarda parenteza atamasi bilan yuritilib, grammatikaning tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.¹⁰

Parentetik konstruksiyalar, zamonaviy lingvistik izlanishlarda, tobora ko‘proq nutq egasiga yo‘naltirilgan mazmuni ifodalovchi, strukturaviy va semantik jihatdan mustaqil birliklar sifatida talqin qilinmoqda.

Xususan, K. Potts hamda M. Kluck o‘z izlanishlarida parentetik ifodalarni asosiy sintaktik konstruksiyaga tarkibiy jihatdan inkorporatsiyalashmagan, ammo kommunikativ jihatdan muhim bo‘lgan elementlar sifatida ko‘rsatadi. M. Kluck o‘zining ishchi ta’rifida parentetiklarni “mezbon tuzilmasidan strukturaviy va semantik jihatdan mustaqil bo‘lgan va nutq egasining pozitsiyasini ifodalovchi” birliklar deya tavsiflaydi.¹¹

Bundan tashqari, kiritma birliklar til materialida, ayniqsa yozma shaklda tinish belgilar (masalan, vergul, qavs, chiziq) orqali, og‘zaki muloqotda esa maxsus intonatsion kontur yordamida asosiy gapdan vizual va akustik jihatdan ajratib ko‘rsatiladi. Bu belgilar parentetik birliklarning strukturaviy periferikligi va intonatsion-sintaktik avtonomiyasini vizual va fonetik jihatdan tasdiqlovchi formal indikatorlar hisoblanadi.¹²

Mazkur tavsiflar parentetik birliklarning nafaqat sintaktik chegaralanishini, balki ularning pragmatik va stilistik funksionalligini ham aniqlab beradi. Parentetik vositalar muloqot davomida nutq sohibing baholovchanligi, izohlovchi pozitsiyasi, shubha yoki ishonch kabi metakommunikativ maqsadlarini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Qo‘shimcha ma’lumotlarga tayanib, mazkur kategoriya asosiy diskursni semantik jihatdan boyituvchi hamda kontekstual aniqlikni ta’minlovchi parentetik konstruksiyalarni o‘z ichiga oladi. Ular, odatda,

⁹ Тураева З. Я. Текст: структура, семантика и прагматика. - Москва. Наука, 1986. – С. 34–42.

¹⁰ Ackema P., Neeleman A., De Vries M. Parenthesis and syntactic structure: The orphan approach // Linguistic Inquiry. – Cambridge, 2012. – Vol. 43, No. 3. – P. 381–419.

¹¹ Potts C. The Logic of Conventional Implicatures. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 272 p.; Kluck M. Sentence Amalgamation. – Utrecht: LOT, 2011. – P. 229.

¹² Burton-Roberts N. Parentheticals. Encyclopedia of Language and Linguistics (2nd edition). – Oxford: Elsevier, 2006. – Vol. 9. – P. 180–185.

klauzal tuzilma asosida shakllanib, tushuntiruvchi, motivatsion yoki fon ma'lumotlarini yetkazadi va shu orqali matnning izohiy chuqurligini oshirib, o'quvchi yoki tinglovchining semantik tafakkurini faollashtiradi. Shu bois, ular diskursiv sathda yuqori funksional yuklamaga ega bo'lib, strukturaviy jihatdan mezbon gapning ajralmas (integral) qismi sifatida emas, balki unga periferiya orqali ulanadigan elementlar sifatida talqin etiladi..

Metamatnli bayonlar: Ushbu turkum parentetik birliklar nutqning o'zi haqidagi nutq (metadiskurs) bo'lib xizmat qilish holatini ifodalaydi. Bunday konstruksiyalar tinglovchini yoki o'quvchini nutqning qanday talqin qilinishi kerakligi to'g'risida yo'naltiruvchi signallar sifatida faoliyat yuritadi (*to be honest, strictly speaking, as it were*). Ular matnning diskursiv arxitekturasini boshqaruvchi muhim vositalardir.

Zamonaviy tilshunoslikda kiritma birliklarning (parenthetical elements) tilning ko'p qirrali tabiatini yoritishdagi roli ochib berilgan. Ular sintaktik mustaqilligi bilan ajralib turadi, biroq semantik va pragmatik jihatdan matnga chuqur bog'langan bo'ladi. Kiritma birliklar asosiy gap tuzilmasidan ajratilgan bo'lsa-da, ular orqali fikrni aniqlashtirish, baholash, izohlash, muallif nuqta nazarini ifodalash, yoki emotsiyalarni ifoda etish mumkin.¹³

Kiritma birliklarning emotsional-estetik vazifasi ularning nutqdagi emotiv boyituvchi, subyektiv baholovchi va uslubiy bezak xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Bu vazifa, avvalo, kiritma birliklarning nutq subyektining his-tuyg'ulari, kayfiyati yoki estetik qarashlarini ifoda etish orqali amalga oshadi.

Zamonaviy pragmalingsvistik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kiritma birliklar nutqning nafaqat axborot, balki ekspressiv va emotiv funksiyalarini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, adabiy matnlarda va og'zaki nutqda bu birliklar yordamida muallif yoki nutq sohibining, jo'shqinlik, ajablanish, achinish, quvonch kabi hissiy holatlarni nozik tarzda yetkazadi.¹⁴

Kiritma birliklar nutq jarayonida: izoh berish, sabab ko'rsatish, mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, fikrni to'g'rilash va yangilash kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Ular yordamida nutq yanada jonli, tabiiy, ta'sirchan bo'ladi. Ayniqsa, adabiy matnlarda kiritma birliklar obrazlarning psixologik holatini, muallifning kayfiyatini yoki uslubini ochib beradi. Shu sabab ularni stilistik va poetik vosita sifatida ham baholash mumkin. Stilistik jihatdan ular matnga ekspressivlik va individuallik olib kirsam, poetik jihatdan ritm, pauza, urg'u va lirik ohang yaratadi.

Birinchi bobning so'nggi faslida "Kiritma birliklarning pragmatik va ko'p funktsionallik xususiyatlari" xususidagi fikrlar tahlil qilinadi. Boshqa so'z turlari singari kiritma birliklar nutqda o'ziga xos pragmatik va ko'p funktsionallik xususiyatlariga ega. Kiritma birliklarning pragmatik vazifasi muloqotdoshlar nutqni faollashtirishdagi ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi. Har bir tilda muloqot sharoitini faollashtiruvchi kiritma ibora va birliklar mavjud. Ular matn va nutq jarayonida kommunikativ hamda pragmatik vazifalarni bajaradi. O'zbek va

¹³ Fraser B. Towards a theory of discourse markers // Approaches to Discourse Particles. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – P.189–204; Hyland K. Hedging in Scientific Research Articles. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1998. – 330 p.

¹⁴ Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. – London / New York: Continuum, 2005. – 240 p.; Fraser B. What are discourse markers? // Journal of Pragmatics. – Vol. 31. 1999. – P. 931–952.

ingliz tili materiallari asosida kiritma birliklarni kommunikativ va pragmatik vazifalari ushbu tillarning o'ziga xosligi sabab har doim xam moslashmasligi mumkin. Chunki, har bir tilning leksik tarkibi, grammatikasi, leksik-semantik, voqealanishi sintaktik omillaridan tashqari lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari muhim sanaladi. Bundan tashqari kiritma birliklarning ko'pfunksionallik xususiyatlari ham ularning pragmatik va kognitiv voqealanishiga bog'liq.

O'zbek va ingliz tillaridagi kiritma birliklarning ko'p funksionalligi ularning nutq va matndagi vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, kiritma birliklar matn va nutqda pragmatik mazmun kasb etadi. Ular matnni tushunish va ma'lumotni idrok etishni osonlashtiruvchi vosita sifatida, shuningdek, asosiy va yordamchi funksiyalarni bajaruvchi lingvistik element sifatida xizmat qiladi. Kiritma birliklar matnda bog'lovchi, lokutiv, illokutiv va boshqa pragmatik ifodalarni amalga oshiradi, shu bilan birga matnning koherentligini ta'minlovchi yordamchi so'z turkumlari bilan ham funksional jihatdan tenglashtiriladi. Natijada, kiritma birliklar nafaqat matnni boyituvchi, balki uning mantiqiy va kommunikativ samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.¹⁵

Kiritma birliklar matnda nafaqat yordamchi funksiyalarni, balki kogeziya va kogerentlik vazifalarini ham bajaradi. Ular asosiy gapdagi ma'lumotni aniqlashtirish, xabarni yumshatish va sub'yektiv ohang qo'shish orqali matnning mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi. Masalan, ingliz tilidagi *"As it seems, the experiment was successful"* birligi gapning asosiy fikrini oldingi kontekst bilan mantiqan bog'laydi va taxminiy ohang beradi. O'zbek tilidagi *"Ko'rinib turibdiki, tadqiqot natijalari to'g'ri"* birligi esa xabarni tasdiqlash bilan birga matn ichidagi voqea-hodisalarni tartibga solishga xizmat qiladi. Shu tariqa, kiritma birliklar asosiy va yordamchi ma'lumotlarni birlashtirish, voqealar ketma-ketligini tushuntirish va tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini yo'naltirish kabi pragmatik va funksional vazifalarni bajaruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kiritma birliklarning turli funksiyalariga qarab ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchisi – 1-shaxs tomonidan bildiriladigan fikrni yorituvchi birliklar, ular muallifning shaxsiy pozitsiyasini ifodalaydi. Masalan: *"I think the experiment was successful"* – *"O'ylashimcha, tajriba muvaffaqiyatli bo'ldi."* Ikkinchi guruh – mazmun va munosabatni baholashga qaratilgan birliklar, ular xabar yoki hodisaning muhimligini ta'kidlaydi. Masalan: *"It's significant that the results match our hypothesis"* – *"Eng muhimi, natijalar gipotezaga mos keladi."* Uchinchi guruh – nutq jarayonini faollashtirishga yo'naltirilgan birliklar, ular tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qilish va mazmunni tushuntirishda xizmat qiladi. Masalan: *"In other words, the data confirms our assumption"* – *"Qisqasi, ma'lumotlar bizning farazimizni tasdiqlaydi."* Shu tarzda, kiritma birliklar matnga sub'yektiv ohang, aniqlik va kommunikativ samaradorlik qo'shuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

¹⁵ Кожина Т.В. К вставным словам и их функциям в художественном тексте. – Москва: Наука, 1983. – С. 184–199; Гавриленко И.М. Вставные конструкции и их функции в научном тексте. – Москва: Академия, 2001. – С. 45–78; Патроева Н.В. Использование вставных конструкций в художественном тексте. – Москва: Просвещение, 2002. – С. 217–233.

Bundan tashqari, emotsional-hissiy munosabatni bildiruvchi kiritma birliklar matnga tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qilish, muallifning kayfiyat va his-tuyg'ularini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: *"Hopefully, the results will be positive"* – *"Umid qilamanki, natijalar ijobiy bo'ladi."*, *"In other words, the experiment confirms our hypothesis"* – *"Boshqacha aytganda, tajriba bizning gipotezamizni tasdiqlaydi."*, *"Metaphorically speaking, the data paints a clear picture"* – *"Metaforik aytganda, ma'lumot aniq tasvir beradi."*, *"Bir so'z bilan aytganda, ish muvaffaqiyatli bo'ldi."* Shuningdek, nutqni harakatga keltiruvchi kiritma birliklar tinglovchini yoki o'quvchini nutq jarayoniga jalb qilish, fikrni yetkazishda faol ishtirokni ta'minlaydi. Masalan: *"I'm quoting the author here"* – *"Men shu yerda muallifdan keltirayotganman."*, *"I'm saying, this method works"* – *"Men aytayapman, bu usul ishlaydi."*, *"Menimcha, bu yechim muammoni hal qiladi."*, *"Aytaylik, biz natijalarni tahlil qilamiz."* Shu tarzda, kiritma birliklar matnga emotsional, pragmatik va kommunikativ boylik qo'shuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.¹⁶

Kiritma birliklar yuqori darajada pragmatik ahamiyat kasb etadi. Bu masalaga doir holda Nina Sergeevna Valgina ta'kidlaydiki, kirish so'zlar butun gapga ham, uning alohida komponentlariga ham daxldor bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda kirish so'zlar bevosita gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklari bilan birikib keladi va qaysi bo'lak bilan semantik jihatdan yaqin aloqada bo'lsa, odatda o'sha bo'lakdan oldin joylashadi degan fikrni bildiradi.¹⁷

Bu hollarda ekspressiv vazifalarni o'taydi. Kiritma birliklar so'zlovchi nutqini mazmuniga munosabati, uni baholash, ma'noning qo'shimcha hissiy va ekspressiv ma'nolarini ham ifodalaydidegan mulohaza ilgari suriladi. Kirish so'z va iboralar gapda o'zining pragmatik vazifasi orqali semantik nutqning baholanishida muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Oldingi bobda qayd etilganidek kiritma birliklar konseptual maqomga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqda pragmatik vazifani ham bajaradi va kommunikativ xususiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **"Kirish so'zlar matnda pragmatik vaziyatni shakllantiruvchi vosita sifatida"** deb nomlangan ikkinchi bobida (3 bo'limdan iborat) kirish so'zlarning matnda pragmatik vazifani faollashtirishdagi roli, ularning kommunikativ, emotsional-ekspressiv va baholovchi imkoniyatlari lingvistik hamda kognitiv jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, bobda kirish so'zlarning muloqot jarayonida nutq izchilligini ta'minlash, adresat bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va ma'lumotning pragmatik yo'naltirilganligini ifodalashdagi funksional ahamiyati yoritilgan.

Mazkur bobning dastlabki bo'limi "Ingliz va o'zbek tillarida kirish so'zlar tavsifi" deb nomlanib, unda kiritma birliklar (parentezalar) ingliz va o'zbek tillarida gap yoki ibora shaklida uchray, nutqda qo'shimcha ma'no, emotsional-ekspressiv ohang va muloqotdagi izchillikni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. L.P. Krysin va A.P. Skovorodnikov ta'kidlaganidek, ular grammatik

¹⁶Сковородников А.П. Экспрессивные средства русского языка и речевые ошибки и недочеты // Энциклопедический словарь-справочник. – Москва: Флинта. Наука, 2005. –С. 34.

¹⁷Валгина Н.С. Парентетические конструкции и их функции в современном русском языке. – Москва: Наука, 2001. – С. 102–118.

jihattan mustaqil bo'lsa-da, so'zlovchining munosabatini ifodalash, fikrni aniqlashtirish va tinglovchiga ta'sir o'tkazishda muhim rol o'ynaydi.¹⁸

Ingliz tilida “you know”, “I mean”, “actually”, “in fact”, “believe me” kabi birliklar muloqotni tabiiylashtiradi, e'tiborni jamlaydi yoki fikrni yumshatadi; o'zbek tilida esa “balkim”, “albatta”, “shubhasiz”, “ishonchim komil” kabi birliklar so'zlovchining ishonch darajasi va hissiy munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, “that is to say”, “in other words”, “fortunately”, “sadly”, “frankly speaking” kabi shakllar fikrni aniqlashtirish, baholash yoki tinglovchiga matn mazmunini yaxshiroq yetkazish vazifasini bajaradi. Quyidagi jadval o'zbek tilidagi kiritma birliklarning pragmatik ifodasi taqdim e'tilgan.

1-jadval.

O'zbek tilida kirish so'zlarning pragmatik guruhi

Pragmatik guruh	Vazifasi	Namuna birliklar	Misollar	Izoh
Kontaktni o'rnatuvchi	Suhbatni boshlash, suhbatdosh e'tiborini jalb etish	bilasizmi, qarang, eshitingizmi	“ Bilasizmi , bu dunyoda eng qiyin narsa – odamning o'zini yengishi.” (O'. Hoshimov, <i>Ikki eshik orasi</i>)	Kiritma birlik suhbatdoshning diqqatini faol ravishda yo'naltirish hamda nutqqa qo'shimcha ekspressivlik va ta'sirchanlik baxsh etuvchi lingvopragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi.
Kontaktni qo'llab-quvvatlovchi	Suhbat jarayonida tinglovchini faol tutish, roziligini olish	to'g'rimi, tushunyapsizmi, ko'ryapsizmi	“Shunday emasmi, to'g'rimi? ” (S. Ahmad, <i>Ufq</i>)	Kiritma birlik suhbatdoshning roziligini shakllantirish, muloqotni ikki tomonlama faol jarayonga aylantirish hamda interaktivlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi nutqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.
Nutq oqimini tartibga soluvchi	Gapni davom ettirish, muloqot izchilligini ta'minlash	demak, endi, xullas	“ Demak , siz ham shunday o'ylaysizmi?” (A. Qodiriy, <i>O'tkan kunlar</i>)	Kiritma birliklar nutqiy jarayonda umumlashtirilgan mazmunni ifodalash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda suhbatni izchil yakunlash vositasi sifatida qo'llanadi.
Mazmunni aniqlovchi	Fikrni izohlash, qo'shimcha tushuntirish berish	ya'ni, boshqacha aytganda	“Uning orzusi oddiy emas edi, ya'ni xalqni ozodlikka yetaklash edi.” (A. Qodiriy, <i>Mehrobdan chayon</i>)	Kiritma birlik avvalgi bayonotning mazmunini yanada aniqlashtirish, semantik noaniqliklarni bartaraf etish hamda qo'shimcha tushuntirish berish vazifasini bajaradi.
Baholovchi-pragmatik	Gapiruvchining shaxsiy munosabatini, subyektiv bahosini ifodalash	rostini aytсам, to'g'risi, ochig'i	“ Rostini aytсам , sizni ko'rganimda ko'nglim yorishadi.” (O'. Hoshimov, <i>Tushda kechgan umrlar</i>)	Baholovchi kiritma birlik bo'lib, u gapiruvchining shaxsiy munosabati, subyektiv bahosi va nutqqa samimiylilik hamda ekspressivlik ruhini singdirishga xizmat qiladi.
Emotsional-pragmatik	Suhbatga hissiy tus berish, kayfiyatni ifodalash	voy, eh-he, hay-hay	“– Voy, bolam, sen hali bolakay ekansanku!” (P. Qodirov, <i>Yulduzli tunlar</i>)	Mazkur kiritma emotsional-ekspressiv vosita sifatida nutqda hayrat, samimiy mehr va hissiy jo'shqinlikni ifodalashga xizmat qiladi.
Xotiraga tayanuvchi	Oldingi voqealarni eslatish orqali muloqotni davom ettirish	eslaysizmi, aytgandek	“ Esleysizmi , o'sha kunlar qanday qiyin edi?” (O'. Hoshimov, <i>Daftar hoshiyasidagi bitiklar</i>)	Kiritma birlik tinglovchini o'tgan voqealarni esga olishga yo'naltiradi va nutqda xotiraga murojaat qilish funksiyasini bajaradi.
Yakunlovchi	Suhbatni tugatish, xulosa chiqarish	qisqasi, shunday qilib, xullas	“ Xullas , hamma o'z yo'lini tanladi.” (A. Qodiriy, <i>O'tkan kunlar</i>)	Kiritma birlik suhbatni izchil yakunlash, mantiqiy umumlashtirish va umumiy xulosa chiqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

¹⁸Сковородников А. П. Экспрессивные средства русского языка и речевые ошибки и недочёты // Энциклопедический словарь-справочник. – Москва: Флинта, Наука, 2005.–С. 34–50; Крысин Л. П. Современный русский язык: Социальная и функциональная дифференциация. – Москва: Наука, 2003. – С. 210–225.

Tilshunos A. G‘ulomovning fikricha, bu birliklar gap tarkibiga grammatik jihatdan bog‘lanmagan bo‘lsa-da, mazmuniy-semantik aloqani saqlab qoladi va asosiy gap vazifasini buzmasdan fikrni kengaytirish yoki aniqlashtirish imkonini yaratadi.¹⁹

Ushbu bobning “Ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlarning polifunksional semantikasi” nomli bo‘limida kirish so‘zlar va iboralarning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari, nutqdagi va diskursdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Kiritma birliklar gap tarkibida turli kommunikativ vazifalarni bajaradi: mulohaza bildirish, xulosalarni ochib berish, tinglovchi e‘tiborini boshqarish, matnni bog‘lash va emotsional ohangni yaratish. An’anaviy tilshunoslikda kiritma birliklar ko‘pincha faqat grammatik va struktural jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ularning polifunksional semantikasi, stilistik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, kommunikativ strategiyalardagi roli yoritiladi. Vinogradov, Belashapkova va boshqa olimlar kiritma birliklarni gap mazmunidan mustaqil, ammo nutqning umumiy kommunikativ tuzilishida muhim birliklar sifatida talqin qiladilar. Ular tinglovchiga subyektiv baho berish, fikrni izohlash va diskursiv bog‘liqlikni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.²⁰

2-jadval.

O‘zbek tillida kirish so‘zlarning polifunksional semantikasi

Polifunksional guruhi	Vazifasi	Namuna birliklar	Misol	Izoh
Modal kiritmalar	Tinglovchiga e‘tibor jalb qilish, shubha yoki ishonch bildiradi	<i>aslida, xullas, ehtimol</i>	<i>Aslida, bu sirni hech kim bilmas edi</i> Chingiz Aytmatov, <i>Jamila</i> , bet 45	Og‘zaki nutqda pauza bilan ajratiladi, gapning asosiy tuzilishiga kirmaydi, sub‘ektiv munosabatni ifodalaydi.
Bog‘lovchi kiritmalar	Gapning oqimini bog‘lash, suhbatni davom ettirish yoki mavzuni o‘zgartirish	<i>shunday qilib, keyin, shuning uchun</i>	<i>Shunday qilib, u yolg‘onlarini ochiq aytishga qaror qildi</i> Abdulla Qodiriy, <i>O‘tgan kunlar</i> , bet 132	Gapni sintaktik jihatdan bo‘lishmaydi, lekin diskursning mantiqiy izchilligini ta‘minlaydi.
Yuklama / izoh kiritmalar	Tinglovchiga qo‘shimcha ma‘no berish, izoh yoki qo‘shimcha fikr qo‘shish	<i>bilasizmi, deyishim kerakki, xuddi shunday</i>	<i>Men, bilasizmi, bu ishni uddalash qiyin bo‘ladi</i> Hamid Olimjon, <i>Tanlangan asarlar</i> , bet 58	Nutqga subyektiv yoki emotsional qatlam qo‘shadi; yozma matnda qavs yoki vergul orqali ajratiladi.
Ekspressiv kiritmalar	Emotsional ohang, hayrat, kinoya yoki mehribonlik ifodalash	<i>voy, afsus, hayrat</i>	<i>Voy, qanday ajoyib manzara!</i> Chingiz Aytmatov, <i>Jamila</i> , bet 27	Tinglovchining hissiy reaksiyasini bildiradi; intonatsiya bilan mustaqil tarzda ifodalanadi.
Diskurs-kontrol kiritmalar	Suhbatni boshqarish: kirish, davom ettirish, o‘zgartirish, yakunlash	<i>xo‘p, to‘g‘ri, endi</i>	<i>Xo‘p, endi ertangi rejaga o‘tamiz</i> Abdulla Qodiriy, <i>O‘tgan kunlar</i> , bet 201	Asosiy gapning sintaksisiga qo‘shilmaydi, lekin muloqot oqimini nazorat qiladi va ishtirokchilarni yo‘naltiradi.

¹⁹G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1957. – B.85–92.

²⁰Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа, 1947. – С. 283 – 298; Белошапкова В. А. Современный русский язык: Синтаксис. – Москва: Высшая школа, 1977. – С. 248-260.

Quyidagi jadval ingliz tilidagi kirish soʻzlarning polifunksional semantikasi va ularning oʻzbek tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tahlilini ifodalaydi. Natijada kirish birliklari nafaqat gapning sintaktik bezagi, balki kommunikativ, stilistik va pragmatik jihatdan nutqning polifunksional elementlariga aylanishi mumkin. Ularning ishlatilishi matnning kogeziqligi, semantik izchilligi va emotsional ohangini oshiradi, shuningdek, soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi kommunikativ hamkorlikni taʼminlaydi.

Ushbu bobning soʻnggi boʻlimi “Ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida kirish soʻzlarning pragmatik vazifalari” deb nomlangan va unda kiritma birliklar matn va nutq tarkibida subʼektiv baho, izoh, aniqlik kiritish va emotsional ifoda beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ularning yozma shakldagi rivojlanishi XVI–XVII asrlarda rus yozma yodgorliklarida qavs orqali ajratish bilan bogʻliq boʻlgan, keyinchalik punktuatsion tizimda mustaqil belgi sifatida shakllangan.

